

# Zamonaviy ijtimoiy sharoitda yetim bolani ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiya qilishning pedagogik mexanizmlari

Dildora Qodirjonovna Raximova  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Bizning hozirda jaddal suratlar bilan rivojlanayotgan zamonamizda “tarbiyachi” shunchaki maktab-internatlar yoki maxsus muassasalardagi lavozim bo’lib qolmay balki u bolalar va o’smirlar muammolarini professional darajada hal qilishga qodir bo’lgan mutaxassis bo’lishi zarur. Bugungi kunda mamlakatimizdagi faoliyat yurutayotgan oliy o’quv yurtida ta’lim-tarbiya ishlari bilan professional ravishda shug’ullana oladigan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

**Kalit so’zlar:** ta’lim sifati, murabbiylar, psixologik xususiyatlar, muloqot, tarbiyachi, o’smirlar muammolari, professional ta’lim, mehribonlik uyi, bola shaxsi, ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiya, gipertrofiya

## Pedagogical mechanisms of social pedagogical rehabilitation of orphans in modern social conditions

Dildora Kadirjonovna Rakhimova  
Namangan State University

**Abstract:** In our time, which is developing with fast images, the “educator” is not just a position in boarding schools or special institutions, but it is necessary to be a specialist who is able to solve the problems of children and adolescents at a professional level. Today, the higher educational institutions operating in our country are training specialists who can professionally engage in educational work.

**Keywords:** quality of education, coaches, psychological characteristics, communication, educator, adolescent problems, professional education, orphanage, child’s personality, socio-pedagogical rehabilitation, hypertrophy

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasida Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to’g’ri yo’lidir deb takidlab talim va tarbiyaga shunday tariff keltirib o’tdilar: “Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug’lik bo’ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo’ladi”. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o’qituvchi va murabbiylar bilan ko’proq muloqot qilib, o’quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish

bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak." deb ta'lim va tarbiya jarayonini amalga oshirayotgan soxa vakillariga aloxida ma'naviyatli vazifani yukladilar.

Isonda ijobiy psixologik xususiyatlar , uning qobiliyatlari va fazilatlarini doimiy ravishda tasdiqlashni, o'ziga bo'lgan ishonchini belgilash uchun doimo qo'llab quvatlashni talab etadi. Ushbu yondashuv natijasida yillar va ta'lim tarbiya asosida qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, o'quvchining boshqa odamlarga, bolalar jamoasiga, o'zi bajaradigan funktsiyalar va rollar tizimiga bo'lgan munosabatining o'zgarishi jarayonlarini sodir bo'lishini o'rganish lozim. Bolada shakillangan ijobiy xususiyatlarni yani o'z uyini, oilasini sevish va himoya qilish huquqi daxlsiz ekanligini anglagan xolda yondashuvlarni talab etadi.

Agar biz tarbiyachilar bolada oilaviy aloqalarni qayta tiklash xususiyatlarini shakillantirmoqchi bo'lsak , unda tarbiyachi turarjoy muassasasiga bo'lgan hissiy kechinmalarni shakillantirishga hissa qo'shish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishi shart. Bizning hozirda jaddal suratlar bilan rivojlanayotgan zamonamizda "tarbiyachi" shunchaki maktab-internatlar yoki maxsus muassasalardagi lavozim bo'lib qolmay balki u bolalar va o'smirlar muammolarini professional darajada hal qilishga qodir bo'lgan mutaxassis bo'lishi zarur. Bugungi kunda mamlakatimizdagi faoliyat yurutayotgan oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlari bilan professional ravishda shug'ullana oladigan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Pedagog mutaxassislar shug'ullanadigan har bir inson individualligiva ma'lum darajada chuqur o'ziga xos, psixologik va ijodiy ish, fikrlar, his-tuyg'ular, qiziqishlar va kasbiy mahoratga ega olamdir. Bu kabi qarashlar va olib boriladigan say xarakterlar butun jaxon ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biri xisoblanib kelmoqda. Yaqinda Rossiyada jahon tajribasiga asoslanib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni internatlarga xayriya qilish va rehabilitatsiya qilishning muqobil shakli - patronaj ta'limi paydo bo'ldi. Bu Foster modeli (Angliya) va vasiylik tizimining (AQSh) sintezining bir turi. Bu kabi isloxlarni amalga oshirish qarovsiz qolgan bolalarni jamiyatga qo'shish va jamiyatning muhim bir azosi qatoriga qo'shish jamiyatning eng muhim dolzarb muammolaridan biridir.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda yetim bolani ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiya qilishning ushbu usuli o'rinbosar oila parvarishi modeli sifatida keng e'tirof etilgan. Oila bolalar uyidan bolani tarbiyalash uchun oladi, lekin abadiy emas, shartnomada belgilangan muddatga. Bolaning iltimosiga binoan shartnoma bekor qilinishi yo mudattii uzaytirilishi mumkin. Keyin bola yana mehribonlik uyiga qaytadi, u erda u yangi oila tomonidan qabul qilinmaguncha qoladi. Patronaj tarbiyachisi bolaning o'z oilasida yashash davrida uning hayoti va sog'lig'i uchun javobgardir. Bolalar uyi o'z faoliyatida vasiylik funktsiyalarini bajaradi va o'z xatti xarakterlariga javob beradi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani turar-joy muassasasiga emas, balki oilaga joylashtirish ustuvorligini e'tirof etish va bu orqali uni jamiyatga moslashuvini

jadallashtirish bugungi kunda tobora keng tarqalmoqda. Shu munosabat bilan maktab-internatlarni tarqatib yuborish, ularning faoliyatlari daomida amalga oshiradigan faoliyatlarini oilaviy sharoitga yaqin sharoit yaratish taklifi bildirilmoqda. Ammo yopiq turdagi muassasalarda bolalar hayotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan turub, internat sharoitlarini oilaga yaqinlashtirish istagi ko'pincha salbiy oqibatlariga olib keladi. Xususan, eng yaxshi tajribali mutaxassislar bo'lgan ko'plab o'qituvchilar bolalar bilan "oilada bo'lgani kabi" tipidagi munosabatni qurishga harakat qilishadi, ularni "onalar" deb atashadi. Bunday munosabatlar ko'pincha tashqi reaksiyalar xatti xarakatlar, ko'zga ko'rinadigan, xarakterga ega. Aslida, bunday oilalarda "oilaviy aloqalar va munosabatlar" ga taqlid yani suniylik mavjud, bu esa keyinchalik chuqur ruhiy jarohatlarga olib keladi. Bola qabul qila olmaydigan narsani - kattalar tomonidan o'z manfaatlarini ko'zlab taklif qiladigan sun'iy oilaviy munosabatlarni majburan majburlash mumkin emas. Bola erkin fikrlagan va mehr muhabbatni samimiy xis qilgan oiladagina barkamol shaxs bo'lib tarbiyalanishi mumkin.

A.S.Makarenkoning fikricha bola shaxsini shakillantirishda ikkita xato juda ko'p uchraydi:

Birinchi xato "hammani bir xil teng ko'rish"dan iborat bo'lib, odamni standart namunaga kiritish, inson turlari tor seriyasini tarbiyalashga intilish hisoblanadi.

Ikkinchisi - har bir individning xususiyatlariga passiv e'tibor qilish, har bir odam bilan alohida tartibsiz shug'ullanish bilan hammani bir vaqtda boshqarishga natijasiz urinish. Bu - gipertrofiyadir (lotincha - haddan tashqari oshirib yuborish).

Demak xulosa qiladigan bo'lsak biz bolani barkamol shaxs sifatida tarbiyalar ekanmiz har biriga suniy muhitni emas balki bola o'zini erkin xis qiladigan jamiyatdagi oila muhitini yarata olishimiz buning uchun bor kuch g'ayratimizni safarbar etishimiz karak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларни ижтимоий ҳаётга тайерлашнинг педагогие тизими Монография Фвн 2010 й
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги "Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-3808-сон Қарори
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Ўзбекистон, 2014. – 76 б.
5. "Ёш оилаларни моддий ва маънавий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар" тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони ПФ-3878 19 май 2007 й.

6. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.

7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.

8. Bolalarni oilaga qabul qilish va uning ijtimoiylashuvini amalga oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar. Uslubiy qo'llanma.-T.: Respublika Bollar ijtimoiylashuv markazi ,2008.-113 b